"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 04, ISSUE 07, 2026. JULY
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

PORA BERISH JINOYATINING KVALIFIKATSIYA QILISH MASALALARI

M.M.Shukurova
O'zbekiston Respublikasi IIB Akademiyasi Jinoyat-huquqi kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 211-moddasida nazarda tutilgan pora berish jinoyatining kvalifikatsiya qiluvchi belgilari, ushbu qilmishning huquqiy tahlili hamda sud-tergov amaliyotida yuzaga kelayotgan tizimli muammolar atroflicha yoritilgan. Maqolada korrupsiyaga oid so'nggi qonunchilik islohotlari, xususan, 2026-yildagi o'zgartirishlar, Oliy sud Plenumi qarorlari mazmun-mohiyati hamda pora berish jinoyatini firibgarlik (JK 168-moddasi), dalolatchilik va boshqa turdosh jinoyat tarkiblaridan farqlash mezonlari konkret amaliy misollar orqali tahlil qilingan. Bundan tashqari, mazkur jinoyat turining latentlik darajasi, isbotlash standartlari va dalillar majmuiga qo'yiladigan protsessual talablar asoslantirib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Pora berish, korrupsiya, kvalifikatsiya, mansabdor shaxs, firibgarlik, dalolatchilik, jinoyatga suiqasd, Oliy sud Plenumi qarori, dalillar majmui, JPK 83-moddasi.*

Аннотация: *В данной статье подробно анализируются квалифицирующие признаки состава преступления, связанного с дачей взятки (статья 211 Уголовного кодекса Республики Узбекистан), его правовая природа и актуальные проблемы следственно-судебной практики. На основе практических прецедентов рассмотрены последние изменения в антикоррупционном законодательстве (включая реформы 2026 года), разъяснения Пленума Верховного Суда, а также критерии разграничения дачи взятки от мошенничества (ст. 168 УК) и иных смежных составов. Особое внимание уделено высочайшему уровню латентности данного преступления, стандартам доказывания и процессуальным требованиям к совокупности объективных доказательств.*

Ключевые слова: *Дача взятки, коррупция, квалификация, должностное лицо, мошенничество, подстрекательство, покушение на преступление,*

постановление Пленума Верховного Суда, совокупность доказательств, статья 83 УПК.

Abstract. *This article provides a comprehensive legal analysis of the qualifying features of the crime of giving a bribe under Article 211 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, as well as procedural issues arising in investigative and judicial practice. Relying on concrete legal cases, the paper examines recent anti-corruption legislative reforms (including changes enacted in 2026), relevant Supreme Court Plenum resolutions, and key criteria for distinguishing bribery from fraud (Article 168) and other related offenses. Furthermore, the article highlights the high latency of corruption crimes, evidentiary standards, and strict procedural requirements regarding the sufficiency of objective evidence.*

Keywords*: Giving a bribe, corruption, qualification, official, fraud, instigation, attempted crime, Supreme Court Plenum resolution, body of evidence, Article 83 of the CPC.*

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 avgustdagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Farmonida [1] sud-tergov faoliyatini yanada takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari shaxsning huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash, protsessual harakatlarning sifatini oshirish, jinoyat protsessida dalillarni to‘plash va mustahkamlash, ularga baho berish tizimini ilg’or xorijiy tajribada keng qo‘llaniladigan isbotlash standartlarini inobatga olgan holda qayta ko‘rib chiqish etib belgilangan.

Shu maqsaddan kelib chiqib bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaliy faoliyatida boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar muammosi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlardan boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish xususiyatlarini yaxshi bilish, jinoyat qonunchiligining ushbu sohadagi normalarini to‘g’ri sharhlash va qo‘llay olishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2026 yil 22 iyundagi “Ayrim qonun hujjatlariga korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g’risida”gi O‘RQ-1155-son Qonuniga ko‘ra korrupsiyaga oid jinoyatlar etib quyidagilar belgilandi: Jinoyat kodeksi 167-moddasi 3-qismi "d"

bandida, 168-moddasi 4-qismi "g" bandida, 192-9, 192-10-moddalarida, 192-11-moddasi 2-qismi "v" bandida, 205-moddasi 2-qismi "v" bandida, 206-moddasi 2-qismi "v" bandida, 208-moddasi 2-qismida, 209-moddasi 2-qismi "v" bandida, 210, 211, 212, 213, 214, 214-1, 214-2-moddalarida va 301-moddasi 2-qismi "b" bandida nazarda tutilgan jinoyatlar hamda JKning 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyat, agar mazkur jinoyat korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etish natijasida olingan daromadlarni legallashtirish bilan bog’liq holda sodir etilgan bo‘lsa [2]. Shu o‘rinda korrupsiya xarakteridagi jinoyatlar ichida klassik shaklga ega bo‘lgan "pora" olish, olish berishda vositachilik qilish "poraxo‘rlik jinoyatlari" tushunchasi bilan birlashtirilgan bo‘lib, u ichki korrupsiyaning markaziy bo‘g’iniga aylangan. "Poraxo‘rlik" boshqa aksariyat jinoyatlardan farqli o‘laroq kamida ikkita jinoyat subyekti — pora oluvchi va pora beruvchi yoki pora beruvchi va vositachining albatta mavjudligini nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, bu bir butun jinoyatda bir necha subyektlarning jinoiy faoliyati yagona jinoiy maqsad bilan birlashadi va bir-birini o‘zaro to‘ldiradi.

Pora berish korrupsiyaviy jinoyatlar ichida mansabdor shaxslarning jinoiy xatti-harakatlari ichida eng xavfli "professional" sanalgan shakllaridan biridir. Uning yana bir xavfli ahamiyati shundaki, u boshqa og’ir jinoyatlar bilan bevosita bog’liq bo‘ladi.

O‘tkazilgan hisob-kitoblarga ko‘ra dunyo miqyosida poraxo‘rlik jinoyatlari latentligi yuqori bo‘lgan jinoyatlar toifasiga kirib, sodir etilayotgan korrupsiyaga oid jinoyatlarning bor-yo‘g’i atigi 4–5 foizi aniqlanib, bu borada o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlarda qatnashgan fuqarolarning 25 foizi korrupsiyani salbiy ijtimoiy hodisa sifatida e’tirof etmasliklari aniqlangan.

Bugungi kunda mamlakatimizda boshqaruv sohasini demokratlashtirishga qaratilgan islohotlarga salbiy ta’sir etuvchi omillar ham yo‘q emas. Shunday omillarning asosiylaridan biri bu boshqaruv tartibiga qarshi korrupsiyaga oid jinoyatlar hisoblanadi.

Pora berish jinoyati ham bu qonuniyatdan mustasno emas. Pora berish jinoyati, avvalo, ikki tomon — pora beruvchi va pora oluvchining o‘zaro aloqasi orqali amalga oshiriladi. Sanab o‘tilgan har bir tajovuz JK 210–212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bilan bog’liq bo‘lmagan holda sodir etilishi mumkin emas. Ular bir-biri bilan shu darajada bog’liq bo‘ladiki, pora olish faktining mavjud emasligi pora berish faktini ham istisno etadi. Shu jihatdan, boshqaruv tartibiga qarshi

korrupsiyaga oid jinoyatlarning orasida pora berish jinoyati ijtimoiy xavflilik jihatidan yuqori hisoblanadi. Ushbu jinoyat ijtimoiy xavfliligining yuqoriligi mazkur jinoyat davlat va jamiyat boshqaruvi normal faoliyatini buzilishiga, uning obro‘sini tushishiga, fuqarolarning ijtimoiy adolatga bo‘lgan ishonchini so‘nishiga, ularning huquq va manfaatlari buzilishiga olib kelishi bilan izohlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 211-moddasi pora berish jinoyati uchun javobgarlik asoslari hamda huquqiy baholash masalalarini tahlil qiladigan bo‘lsak: *pora berish, ya’ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsiga mazkur mansabdor shaxsning o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish tushuniladi.*

Sud-tergov organlarining statistik ma’lumotlari va materiallarini o‘rganish natijasida bunday qilmishlarni malakali baholashda ko‘pincha xatolarga yo‘l qo‘yilayotganligi aniqlandi. Ya’ni holatdan kelib chiqib, shaxsning yuqori tashkilotdagi tanishlariga pora berish evaziga ishini hal qilib berishini aytib pora so‘rab olishi ko‘pincha ishini hal qilish evaziga so‘ragan porasini bergan shaxsning harakatlari pora berishga suiqasd qilish emas balki pora berish jinoyati sifatida ko‘rilib agar o‘ttiz sutka ichida habar bergan bo‘lsa u jabrlanuvchi deb topilmasdan ushbu shaxsga oid jinoyat ishi dastlabki tergovda tugatilmoqda. Ammo amaliyotdagi kvalifikatsiyadagi xatolik ya’ni shaxsning harakatini to‘g’ridan-to‘g’ri pora berish JKning 211-moddasi bilan emas balki jinoyat sodir qilishga suiqasd qilish JKning 25,211-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 24 sentyabrdagi "Poraxo‘rlik ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g’risida"gi 19-sonli qarorining 15-bandida [3] boylikлapni qo‘lga kiritish maqsadida pora beruvchi ular tomonidan pora berishga og’dirilgan taqdirda aybdorning harakatlari firibgarlikdan tashqari pora berishga qiziqtiruvchi tariqasida qo‘shimcha tavsiflanishi kerak. Pora beruvchining harakati bunday hollarda pora berishga suiqasd deb tavsiflanishi lozim bo‘ladi. Bu o‘rinda pora berilishi mo‘ljallangan muayyan mansabdor shaxs aytilgan-aytilmaganligining ahamiyati yo‘qligi belgilangan. Agar shaxsning o‘zi pora berishni taklif qilgan bo‘lsa uning harakati to‘g’ridan-to‘g’ri JKning 211-moddasi

kvalifikatsiya qilinadi. *Masalan, chegarani qo‘riqlash vzvod komandiri D.S.ning arizasi bo‘yicha o‘tkazilgan tezkor-qidiruv tadbiri davomida, fuqaro S.E. Yangiqo‘rg’on tumanidagi "o‘zbek-qirg’iz" davlat chegarasi orqali Qirg’iz Respublikasidan chorva hayvonlarini qonunga xilof ravishda o‘tkazishda yordam berishlik uchun D.S.ga 5000 AQSH dollari pora berishni taklif qilib, 2026 yilning 21 fevral kuni kelishilgan puldan 2500 AQSH dollarini oldindan D.S.ga bergan. Mazkur 2500 AQSH dollari D.S. tomonidan ixtiyoriy taqdim qilinib, bayonnoma asosida rasmiylashtirib olingan. 2026 yil 21 fevral kuni soat 20:00larda S.E. bir guruh shaxslar bilan oldindan til biriktirib Yangiqo‘rg’on tumanidagi Oqtom va Mug’ol mahallalarini Qirg’iz Respublikasi Oqtom qishlog’i bilan ajratuvchi "o‘zbek-qirg’iz" davlat chegarasidan 5 bosh chorva mollari va 25 bosh qo‘y-qo‘zilarni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o‘tkazganda tezkor tadbirga jalb qilingan DXX xodimlari tomonidan ushlangan. S.E. harakatlari JKning 211-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilingan.*

Yana bir holat A.Ochilov, 2025 yil fevral oyidan 2025 yil may oyiga qadar o‘zganing mulkini aldash va ishonchini suiiste’mol qilish yo‘li bilan qo‘lga kiritish maqsadida, oldindan tuzilgan jinoiy rejasi asosida harakat qilib, Xoshimov Xursandbek Abduraximovichni ishonchiga kirib, uni Janubiy Koreya davlatiga borish uchun "VIZA" tayyorlab berishni hamda Janubiy Koreya davlatida ishga joylashga va’da qilib, 7.200 AQSH dollari miqdordagi pul mablag’ini aldov yo‘li bilan qo‘lga kiritib, X.Xoshimovga bergan va’dasini bajarmasdan, pullarni o‘zining shaxsiy ehtiyojlariga ishlatib yuborib, X.Xoshimovga jami 7.200 AQSH dollari miqdorida moddiy zarar yetkazganligi aniqlangan.

Bundan tashqari, A.Ochilov, 2025 yil fevral oyidan 2025 yil may oyiga qadar o‘zganing mulkini aldash va ishonchini suiiste’mol qilish yo‘li bilan qo‘lga kiritish maqsadida, oldindan tuzilgan jinoiy rejasi asosida harakat qilib, Xoshimov Xursandbek Abduraximovichni ishonchiga kirib, uni Janubiy Koreya davlatiga borish uchun Janubiy Koreya davlatining O‘zbekiston Respublikasidagi Elchixonasidagi tanishi orqali "VIZA" tayyorlab berishni hamda Janubiy Koreya davlatiga borgandan keyin ishga joylashtirishni va’da qilib, noma’lum shaxsga pora berishga dalolatchilik qilib, 7.200 AQSH dollari miqdordagi pul mablag’ini aldov yo‘li bilan qo‘lga kiritib, X.Xoshimovga bergan va’dasini bajarmasdan, pullarni o‘zining shaxsiy ehtiyojlariga ishlatib yuborib, X.Xoshimovga jami 7.200 AQSH dollari miqdorida moddiy zarar yetkazganligi aniqlangan.

Bu masalada A.Ochilovning jinoiy harakatlari "firibgarlik, ya’ni aldash va ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing ancha miqdorda mulkini qo‘lga kiritish"da ifodalangan jinoiy harakatlari O‘zbekiston Respublikasi JK 168-moddasi 2-qismining "a" bandi bilan hamda "ishtirokchiligida pora berish, ya’ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot mansabdor shaxsiga mazkur mansabdor shaxsning o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim va mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, juda ko‘p miqdorda moddiy qimmatliklar berishga dalolat qilish"da ifodalangan jinoiy harakatlari O‘zbekiston Respublikasi JKning 28,211-moddasining 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi va JKning 59-moddasi tartibida jazo tayinlanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, shaxsning harakatini bila turib o‘z manfaati uchun mansabdor shaxsga pora berish deb kvalifikatsiya qilish uchun aynan shaxsning pora bermoqchi bo‘lgan shaxsi haqiqatda mansabdor lavozimida ishlaydimi, balki bu firibgarlikdagi aldovning bir usulidir — uning hech qanaqa mansabdor tanishi yo‘qdir. Aynan kvalifikatsiya masalasida shu jihatlarga ahamiyat qaratish lozim bo‘ladi. Masalan, *B.Yu 2023 yilning yanvar oyidan buyon "Bestr arch design" MChJni norasmiy boshqarib kelib, ushbu jamiyatning nomidan foydalanib, xizmat mavqeidan foydalangan holda aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini qo‘lga kiritish maqsadida, ishchisi S.Yunusov (jinoyat ishining unga oid qismi dastlabki tergov jarayonida ayblilik haqidagi masalasi hal qilinmasdan tugatilgan) va boshqalar bilan oldindan jinoiy til biriktirib, fuqaro G’.Jning fuqarolar N.T, T.B va U.Ilarga tegishli bo‘lgan uylarning qurilishi tugallangan obyektlar loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlab berib, ulardan foydalanish uchun ruxsatnoma va Bo‘stonliq tumani qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining xulosalarini olishda yordam berishni so‘rab qilgan murojaatidan foydalanib, unga har bir xulosani 300 AQSH dollaridan, jami 900 AQSH dollari evaziga olib berishini bildirib, uni tanishi mansabdor shaxsga pora berishga dalolat qilib, o‘zining jinoiy rejasini amalga oshirish uchun ishchisi S.Yuni jalb qilib, 2023 yil 24 noyabr kuni S.Yunusov orqali talab qilingan 900 AQSH dollarini G’.Jaikbayevdan Bo‘stonliq tumani, G’azalkent shahar, Bo‘stonliq ko‘chasida olgan vaqtda S.Yu huquqni muhofaza qiluvchi organ*

xodimlari tomonidan G’.Jning arizasiga asosan o‘tkazilgan tezkor tadbir jarayonida ushlangach, B.Yu hodisa joyidan yashiringan.

Bu holatda B.Yuning jinoiy harakati dastlabki tergov organi tomonidan JKning JK 25,168-moddasi 3-qismining "v" bandi va 28, 211-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilingan. Masalada B.Yuning harakatlarini kvalifikatsiya qilishda tergov organi xatolikka yo‘l qo‘ygan.

Chunki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023 yil 23 iyundagi "Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g’risida"gi 17-sonli qarori 23-bandida, xizmat mavqeidan foydalanib firibgarlik sodir etganlik (JK 168-moddasi uchinchi qismi "v" bandi) uchun javobgarlik shaxs o‘z xizmat mavqeidan faqat aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish uchun foydalanib, o‘zganing mulkini yoki unga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritish maqsadida o‘z xizmat vakolatlari doirasiga kirmaydigan harakatlarni (harakatsizlikni) amalga oshirgan hollardagina vujudga kelishi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi JKning sakkizinchi bo‘limida mansabdor shaxs tushunchasi ko‘rsatilgan bo‘lib, mansabdor shaxs – doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo‘yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat’iy nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy boshqaruv, ma’muriy-xo‘jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga ega vakolat berilgan shaxslar ekanligi ko‘rsatilgan. Ish hujjatlariga ko‘ra, B.Yu "Bestr arch design" MChJni norasmiy boshqarib kelib, ushbu jamiyatning nomidan foydalanib, xizmat mavqeidan foydalangan holda aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini qo‘lga kiritish jinoyatini sodir etganlikda ayblangan. B.Yuldashovning biror-bir joyda ishlamaganligi munosabati bilan u hech qanday xizmat mavqeiga ega bo‘lmaganligi yoki mansabdor shaxs hisoblanmasligi hamda unga doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo‘yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, mulk shaklidan qat’i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy boshqaruv, ma’muriy-xo‘jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etadigan vakolatlar berilmagan.

Qayd etilgan holatlarga ko‘ra, B.Yu tomonidan firibgarlik jinoyatini xizmat mavqeidan foydalanib sodir etilgan deb bo‘lmaydi. Shuningdek, tergov vaqtida B.Yuning pora bermoqchi bo‘lgan tanishi ham mansabdor shaxs bo‘lmagan. Shu

sababli, B.Yuning harakatini JK 25,168-moddasi 3-qismining "v" bandidan ushbu moddaning 25,168-moddasi 2-qismining "b" bandi bilan kvalifikatsiya qilinib B.Yuning aybidan 28, 211-moddasi 1-qismi chiqarib tashlanadi.

Aslida pora berish jinoyati, avvalo, ikki tomon – pora beruvchi va pora oluvchining o‘zaro aloqasi orqali amalga oshiriladi. Shu boisdan, bu jinoyatning izlari odatda ikki guruhda ko‘rinadi: moddiy izlar va ideal izlar. Moddiy izlar — pul mablag’lari, qimmatbaho buyumlar, hujjatlar, bank o‘tkazmalari yoki mulkiy shaklda berilgan narsalar ko‘rinishida bo‘ladi. Ideal izlar esa ishtirokchilarning o‘zaro suhbatlari, telefon yoki internet orqali muloqotlari, uchrashuv vaqtidagi psixologik holati va harakatlarida aks etadi. Bu turdagi jinoyatni sodir etish sxemalari ham muayyan umumiylikka ega. Masalan, pora ko‘pincha vositachilar orqali beriladi, ayrim hollarda esa to‘g’ridan-to‘g’ri amalga oshiriladi. Shuningdek, pora berish yolg’on hujjatlar tayyorlash, xizmat vazifasidan suiiste’mol qilish yoki davlat organlari xodimlariga noqonuniy ta’sir o‘tkazish bilan chambarchas bog’liq holda sodir etilishi mumkin. Professor Sh.M.Yo‘ldoshevning ta’kidlashicha, "pora berish jinoyati qonuniylik printsipiga bevosita zarba beruvchi omil sifatida faqat mansabdor shaxsning halolligini buzib qolmay, balki fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi". Bu fikr pora berish jinoyatining nafaqat shaxsiy manfaatga qaratilgan huquqbuzarlik, balki jamiyat uchun keng qamrovli oqibatlarga ega ijtimoiy xavfli harakat ekanini ko‘rsatadi. Chunki pora berish davlat boshqaruvining asosiy ustuni — qonuniylik va adolat printsipiga putur yetkazadi. Agar mansabdor shaxs pora evaziga qaror qabul qilayotgan bo‘lsa, adolat mezonlari yo‘qoladi, davlat apparatining ishonchliligi va samaradorligi pasayadi. Bu esa fuqarolar orasida huquqiy nigilizm, ya’ni "qonun ishlamaydi" degan qarashlarni kuchaytiradi.

Shu o‘rinda S.S.Niyozovaning [4] "pora olish yoki berish haqidagi bitimga erishishga qaratilgan faoliyat deganda, aybdor tomonidan sodir etilgan yoki sodir etilishi pora berilishiga yoki uning mansabdor shaxs tomonidan olinishiga xizmat qiluvchi har qanday xatti-harakatni tushunish lozim. Masalan, vositachi pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab mansabdor shaxs sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan xatti-harakatlarni, pora miqdorini, pora beriladigan joyni va h.k.larni kelishadi" mazmundagi fikrlari o‘rinlidir. Chunki poraxo‘rlik jinoyatlari turlarining qolganlari (192-9, 192-10 va 214-moddalar) ham o‘zining obyektiv tomoni bilan boshqalaridan modda dispozitsiyasida ko‘rsatilgan xatti-harakatlar bilan farqlanadi. Masalan, JKning 192-10-moddasi Nodavlat tijorat tashkilotining

yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og’dirib olish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan bo‘lib, bu jinoyatning JKning 211-moddasidan farqli jihati mansabdor shaxsning davlat tashkilotida ishlashi bilan bog’liq, ya’ni agar davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsiga pora berish JKning 211-moddasi tarkibini, nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisiga pora berish JKning 192-10-moddasi tarkibini tashkil qiladi. Ya’ni nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og’dirib olish deganda davlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisiga mazkur xizmatchining o‘z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og’dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilganligi tushuniladi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, ko‘rib chiqilayotgan modda dispozitsiyasida qonun chiqaruvchi shaxsga nisbatan pora so‘rab tovlamachilik qilingan bo‘lsa va ushbu shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o‘ttiz sutka mobaynida o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod etilishini nazarda tutgan. Ammo sud-tergov amaliyotini o‘rganish davomida ma’lum bo‘lishicha, shu muddat davomida ko‘pincha fuqarolar murojaat qilishmaydi. Chunki firibgar ham pora oluvchi ham bu muddatni biladi va 30 sutkadan keyin ishini bitirib bermaganidan keyin murojaat qilsa, pora beruvchining bergan moddiy boyligi davlat foydasiga musodara qilinishini, odatda o‘zlarini ham javobgarlikka tortilishidan va bergan moddiy qiymatlik o‘zlariga qaytmasligini bilib murojaat qilmasligi mazkur jinoyatning latentlik darajasi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Aynan nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og’dirib olish bilan pora berish jinoyatining farqi zarar yetkazadigan obyektiga ko‘ra farqlanadi.

Pora berish jinoyatini kvalifikatsiya qilish masalasida huquqshunos olimlardan V.Borkovning fikricha, "pora berish motivi sifatidagi boshqa shaxsiy manfaatdorlik mansabparastlik, kek saqlash, hasadgo‘ylik, oilaparvarlik, voqelikni ko‘z-ko‘z qilish istagi, o‘z noqobilligini yashirish, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar uchun

javobgarlikdan qochish, biror masalani hal qilishda o'zaro yordam olish va shu kabilar bilan shartlangan nomulkiy xarakterdagi manfaatni qo'lga kiritishga intilishda ifodalanishi mumkin" [5].

Bizning fikrimizcha, pora berish jinoyatining motiv va maqsadlari turlicha bo'lishi mumkin (masalan, jinoiy ta'qibdan qutilish, g'arazgo'ylik, xavf-xatarga uchrab qolishdan qo'rqish (jinoyatga yo'l qo'yishda) va boshq.). Biroq jinoyatning motivi va maqsadi jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi.

Aksariyat mualliflar pora evaziga sodir etiladigan harakatlarni pora olish va berish jinoyat qonuni o'z ichiga ola olmaydi, deb hisoblaydilar va bunday harakatlar qo'shimcha tarzda hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyati bilan ham kvalifikatsiya qilinishi kerak, deydilar.

Shu o'rinda A.D.Axrorov o'ziga xos fikr bildiradi. Jumladan, u pora berish jinoyati ham boshqa mansabdorlik jinoyatlari kabi hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyatining maxsus tarkibidir va bu ko'rsatilgan jinoyatlarning majmui ekanligini inkor etadi. Faqatgina bunga istisno tarzida pora evaziga mansabdor shaxs boshqa bir maxsus tarkibli mansabdorlik jinoyatini sodir etgan bo'lishligi mumkin, masalan, mansab soxtakorligi, deb ta'kidlaydi [6].

Shu o'rinda biz, e'tibor qaratish lozim bo'lgan muhim bir jihat, mansabdor shaxs qilmishini pora olish va berish deb kvalifikatsiya qilish uchun pora predmetini olish vaqti, usuli, vositasi hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Pora predmeti mansabdor shaxs tomonidan pora beruvchi manfaatida muayyan harakatni sodir etishgacha yoki muayyan harakat sodir etilgandan keyin olinishi mumkin. Bunda qilmishni kvalifikatsiya qilish chog'ida yuqorida aytilganidek, poraning oldindan shartlashilganligi ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Bundan tashqari, ko'p hollarda mansabdor shaxsning biror-bir mulkiy manfaat ko'rishga qiziqishi ularning o'z xizmat yoki mansab vakolatlariga kirmaydigan harakatlarni sodir etishga undaydi va ular ushbu qilmishi bilan pora olish va boshqa shaxsga berish emas, balki firibgarlik JKning 168-moddasining jinoyati subyektiga aylanib qoladi. Ko'p hollarda pora beruvchiga uning uchun o'zining vakolatiga boshqa mansabdorga pora berishni aytib pora oladi. Bizga ma'lumki, poraxo'rlikka oid jinoyatlar moddiy tarkibli jinoyatlar turkumiga kirib, qilmish pora oluvchi tomonidan pora beruvchining, aksincha esa, pora beruvchi tomonidan pora berilayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab, aniq harakatlar sodir etilgan yoki

etilmaganligidan qat’i nazar, pora predmetining loaqal bir qismi olingan yoki berilgan paytdan e’tiboran tugallangan hisoblanadi.

Shuning bilan birga pora olish jinoyati pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat sodir etilgan yoki etilmaganligidan qat’i nazar poraning olinishi yoki berilishi bilan tugallangan jinoyat deb hisoblanishi mumkinligini ham unutmasligimiz kerak. Shuningdek mansabdor shaxs pora evaziga qonuniy harakat sodir etishi ham, g’ayriqonuniy harakat sodir etishi ham mumkin. Shuning uchun ham har ikki holdagi harakatlarni bir xilda kvalifikatsiya qilinishi ham to‘g’ri bo‘lmaydi.

Jinoyat qonunchiligida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyatga suiqasd tushunchalari mavjud bo‘lib, poraxo‘rlikka oid jinoyatlarda subyektlar irodasiga bog’liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra pora predmetining olinmay yoki berilmay qolishida (masalan, pora berilayotgan vaqtda jinoyat qidiruv bo‘limi xodimlari tomonidan jinoyatning to‘xtatilishi) qilmish JK 25-moddasi 2-qismi va 210-moddasi bo‘yicha pora olishga suiqasd qilish tarzida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Shuningdek, qilmishni kvalifikatsiya qilishda aybdor olish yoki berish niyatida bo‘lgan pora miqdori e’tiborga olinishi lozim bo‘ladi [7]. Bundan tashqari, pora olish jinoyatida pora predmetini mansabdor shaxsning shaxsan o‘zi yoki uning roziligi, ijozati yoki topshirig’i bilan boshqa shaxslar tomonidan olinishi qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas. Shu o‘rinda N.A.Yegorovaning fikricha, mansabdor shaxsga maxsus vakolat asosida majburiyatlar yuklanishi shuni anglatadiki, tegishli majburiyatlar belgilangan tartibda lavozimni egallash orqali emas, balki alohida topshiriq bilan yuklanadi. Bunday holatda topshiriq bir martalik xususiyatga ega bo‘ladi yoki aniq belgilangan muddatga yoxud oldindan belgilangan hajmdagi ishni bajarish uchun beriladi va bunga mansabdor shaxsning o‘zi javobgar bo‘lishi pora berish va boshqa boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarning sodir etilishiga zamin yaratadi [8]. N.A.Yegorovaning fikriga qo‘shilamiz. Fikrimizcha mansabdor shaxsga ko‘plab vakolatlarni bir vaqtning o‘zida berilishi pora berish bilan bog’liq jinoyatlarni sodir etilishi uchun sharoit yaratiladi. Tadqiqotchi A.M.Allanovning fikricha, pora berish jinoyatida bir butun jinoyatda bir necha subyektlarning jinoiy faoliyati yagona jinoiy maqsad bilan birlashadi va bir-birini o‘zaro to‘ldiradi [9].

Shuningdek, Yu.Yu. Tishchenkoning fikricha sud amaliyoti materiallarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, 20 foiz holatlarda mansabdor shaxslarning korrupsion

xatti-harakatlari lavozim mavqeidan foydalanib o‘zi yolg’iz qarorlar qabul qilish ko‘rinishida "niqoblanadi" [10]. Aybdorning o‘z lavozim mavqeidan boshqa shaxslarni manfaatdor qilishda foydalanishi o‘rtasidagi sababiy bog’liqlikning o‘ziga xos xususiyatiga e’tibor qaratish lozim. Bu bog’liqlik, odatda, boshqa shaxslarning xatti-harakatlari, tabiiy kuchlar va texnogen xarakterdagi hodisalar ta’siri orqali yuzaga keladi [11].

V. Borkovning fikricha pora berishni kvalifikatsiya qilishda eng katta qiyinchilik bu nomoddiy naf ko‘rishning nimadan iborat ekanligini aniqlashdir. Uni shaxsning o‘z mansab vazifasini bajarishida qonunga ko‘ra to‘g’ri xulq-atvor variantlarini tanlashni talab etadigan haqiqiy vaziyatlarga noto‘g’ri baho berishiga asoslangan holatlarda ko‘radi [12].

N.S.Salayevning fikricha, pora berish jinoyatida nomulkiy naf — shaxsning mulkiy holatini yaxshilashga, oshirishga qaratilmagan, uning shaxsiy kundalik ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltirilgan, har qanday ko‘rinishdagi moddiy tusga ega bo‘lmagan xizmatlar [13]. N.S.Salayevning fikrlariga to‘liq qo‘shilamiz.

Biz pora berish jinoyati uchun jinoyatlar majmui bo‘yicha javobgarlik belgilanishida M.X.Rustambayevning fikriga qo‘shilamiz, uning fikricha pora beruvchi shaxs mansabdor shaxsni xizmat bo‘yicha noqonuniy harakatlar sodir etishga jalb qilsa, uning harakati nafaqat pora berish, balki mansabdor shaxsni jinoyat sodir etishga jalb qilish bilan ham kvalifikatsiya qilinadi [14]. M.X.Rustambayevning fikriga qo‘shilmaymiz, fikrimizcha bu pora berish obyektiv tomonining majburiy elementi hisoblanadi. Bir jinoyat tarkibini tashkil qiladi.

Shu o‘rinda pora berishni takroriylik belgisi bo‘yicha ham kvalifikatsiya qilishda shuni inobatga olish lozimki, pora predmetining bo‘lib-bo‘lib berilishi takroriylik belgisini tashkil etmasdan yagona davomli jinoyat hisoblanadi, bunda aybdorning harakatlari uning qasdi yo‘naltирilganligiga qarab kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Bundan tashqari, pora olish va berish o‘zaro bog’liq bo‘lganligi sababli, qonun chiqaruvchi JKning 211-moddasida pora berish jinoyati tarkibining belgilarini batafsil yoritishdan voz kechib, mansabdor shaxsga shaxsan yoki vositachi orqali pora berishni ko‘rsatish bilangina cheklangan. Qonun chiqaruvchi pora olish tarkibini tasvirlashda ko‘p so‘z ishlatganiga qaramay, pora berishning bevosita obyektiv tomoni (agar ko‘plab vositachilar, pora beruvchi vakil bo‘lgan shaxslar ishtirokidagi poraxo‘rlikni bir chetga surib, faqat pora beruvchi va pora oluvchining

oddiy o‘zaro aloqasini ko‘rib chiqsak) ancha mavhum ifodalangan: mulkiy naf olish (berish). Pora beriladigan harakatlar (harakatsizlik) ko‘rib chiqilayotgan jinoyat tarkiblarining obyektiv tomoni doirasidan tashqarida qoladi va bu holat jinoyat huquqi nazariyasida ham, sud amaliyotida ham asosli deb tan olinadi. Nazarimizda, bunday harakatlarni (harakatsizlikni) pora beruvchi qilmishining subyektiv tomon elementi (mansabdor shaxsni o‘z tomoniga og’dirishdan ko‘zlagan maqsadi yoki unga nisbatan minnatdorlik hissi sabab bo‘lgan motivi) deb hisoblash eng to‘g’ri yondashuvdir. Shu o‘rinda sud amaliyotidan keltirilgan masalaga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, masalan, *A.Abdullayev 2025 yil may oyida tanishi A.Nizomovga tegishli bo‘lgan xususiy tadbirkor Sh.Usmonova nomiga Xitoy davlatidan import qilingan bojxona to‘lovlari yuqori bo‘lgan xalq iste’mol tovarlari uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlarini qasddan kamaytirish maqsadida mazkur tovarlarni bojxona to‘lovlari past bo‘lgan tovarlar sifatida rasmiylashtirishni maqsad qilib, ushbu holat bo‘yicha SVOD viloyat boshqarmasi xodimi B.Xatamovga uchragan vaqtida u ushbu masalani Farg’ona viloyat Bojxona boshqarmasi boshlig’i X.M va "Vodiy" TIF bojxona posti boshlig’i Sh.M lar orqali hal qilishi bo‘yicha maslahat berib, X.M va Sh.M larga A.Abdullayevni borib uchrashi va ushbu masalasini hal qilib berishi evaziga xizmati borligini bildirib, uni jinoiy harakat sodir etishga qiziqtiradi, shunda A.Abdullayev dastlab Sh.M bilan ko‘rishib, unga bojxona to‘lovlari yuqori bo‘lgan tovarlarni bojxona to‘lovlari past bo‘lgan tovarlar sifatida rasmiylashtirish evaziga har bir konteynerdagi tovarlar uchun 2000 AQSH dollari miqdorida pora berishi haqida jinoiy taklif qilganida, Sh.M uning noqonuniy taklifiga jinoiy moyillik bildirgan, so‘ng, A.Abdullayev X.M bilan uchrashib, bojxona posti xodimlari tomonidan yuk plombalari buzilib, tovarlarni tekshirish jarayonida Kontrabandaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlari ishtirok etmasligini ta’minlash evaziga har bir konteynerdagi tovarlar uchun 2000 AQSH dollari miqdorida pora berishi haqida jinoiy taklif qilganda, X.M uning noqonuniy taklifiga jinoiy moyillik bildirgan, so‘ng "Vodiy" TIF bojxona posti boshlig’i Sh.M noqonuniy ekanligini bilgani holda xususiy tadbirkor Sh.Usmonova nomiga Xitoy davlatidan import qilingan 24 ta konteynerdagi bojxona to‘lovlari yuqori bo‘lgan xalq iste’moli tovarlarini go‘yoki bojxona to‘lovlari past bo‘lgan qurilish mahsulotlari sifatida takroran ravishda 30009/08.05.2025/0001587, 30009/06.05.2025/0001541, 30009/09.05.2025/0001590, 30009/15.05.2025/0001671, 30009/14.05.2025/0001658-sonli "Bojxona ko‘rigi*

dalolatnomalari"ga soxta ma’lumotlarni kiritish yo‘li bilan rasmiylashtirib berganligi evaziga A.Abdullayev unga har bir konteyner uchun 2000 AQSH dollaridan jami 48000 AQSH dollari miqdordagi mablag’larni pora tariqasida bergan, shuningdek viloyat Bojxona boshqarmasining Kontrabandaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig’i X.M xususiy tadbirkor Sh.Usmonova nomiga Xitoy davlatidan import qilingan 24 ta konteynerdagi bojxona to‘lovlari yuqori bo‘lgan xalq iste’moli tovarlarini go‘yoki bojxona to‘lovlari past bo‘lgan qurilish mahsulotlari sifatida rasmiylashtirilganini bilgan bo‘lsada, mazkur noqonuniy holat yuzasidan tegishli tartibda chora ko‘rmaganligi evaziga A.Abdullayev unga har bir konteyner uchun 2.000 AQSH dollaridan jami 48.000 AQSH dollari miqdoridagi mablag’larni pora tariqasida bergan, shunday qilib, A.Abdullayev Sh.M va X.M larga 48.000 AQSH dollaridan jami 96.000 AQSH dollari miqdordagi mablag’larini pora tariqasida bergan.

A.Abdullayev, sudda 24 konteynerlar bo‘yicha hech qanday qonunbuzilish holatlari bo‘lmaganligini, aslida 3 ta konteyner 9 ta fura bo‘lganligini, shuni qidirib topib, bahona qilib qamashganligini, X.M va Sh.M lar bilan o‘rtasida hech narsa bo‘lmaganini, X.Mga pul bermaganini, o‘zlarini majburlab yozdirishganini, S ismli SVOD xodimi majburlab yozdirganini aytib ko‘rsatuv bergan.

Bu holatda A.Abdullayevning O‘zbekiston Respublikasi JKning 211-moddasi 3-qismi "a" bandi bilan ayblov qismi bo‘yicha esa uning ushbu moddada nazarda tutilgan jinoyatni sodir etilishiga noto‘g’ri xulosaga kelingan. Shuningdek, A.Abdullayev pora berganligiga dalolat qiluvchi faktlar, ya’ni jinoyatni sodir etilgan vaqti, joyi, usuli umuman aniqlanmagan va bunday dalillar yo‘q. 2025 yil 23 iyunda tasdiqlangan "Poraxo‘rlik jinoyatlari haqidagi ariza va xabarlarni ko‘rib chiqish, bu toifadagi jinoyat ishlarini tergov qilish va sudda ko‘rishda qonun talablariga qat’iy rioya qilinishini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokuror, DXX va Ichki ishlar vazirining Qo‘shma ko‘rsatmasi"ning 8.2-bandida shaxsga ayb e’lon qilishda obyektiv dalillar majmuigina asos bo‘lishi mumkin, bunda, dalillar doirasini pora beruvchi va u bilan bog’liq shaxslarning ko‘rsatmalari hamda aybiga iqrorlik ko‘rsatmalar bilan chegaralanib qo‘ymasdan, shaxsni ayblash uchun pora predmetining olinishi, qonunlar bilan belgilangan tartibda pochta-telegraf va elektron jo‘natmalari, audio yoki video yozuvlar, telefon yoki boshqa moslamalar orqali amalga oshirilgan so‘zlashuvlar aniqlanishi kabi aniq mezonlar bilan asoslantirilishi shartligi belgilangan.

A.Abdullayev pora berish vaqtida ushlanmagan, pora predmeti hisoblangan pullar ashyoviy dalil sifatida olinmagan, ishda uning pora olganligini tasdiqlovchi video yoki audio yozuvlar, telefon so‘zlashuvlari mavjud emas. Bu holatda A.Abdullayevga pora berish ayblov epizodi bo‘yicha faqatgina guvohlarning ishonchga sazovor bo‘lmagan ko‘rsatuvlariga asoslanib, JKning 211-moddasi 3-qismi "a" bandi bilan ayblov hukmi chiqargan, ammo ushbu ko‘rsatuvlari hech kim tomonidan tasdiqlanmagan va ushbu shaxslar muqaddam bergan ko‘rsatuvlaridan butunlay qaytishdi.

Yuqoridagilarga ko‘ra, bu masalada, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 23-moddasi talablariga rioya qilib, A.Abdullayevning aybli ekanligi o‘z isbotini topmaganligi uchun, jinoiy hodisasi yuz bermaganligi sababli A.Abdullayevni O‘zbekiston Respublikasi JKning 211-moddasi 3-qismi "a" bandi bilan aybsiz deb unga nisbatan bo‘lgan jinoyat ishini O‘zbekiston Respublikasi JPKning 83-moddasi 1-bandiga asosan tugatish lozim bo‘ladi.

Ammo bugungi kunda amaliyotda maxsus tarkibli qilmishni kvalifikatsiya qilishda ba’zi muammolarga duch kelish mumkin. Har qanday qilmishni kvalifikatsiya qilishda uning o‘xshash jinoyatlardan farqlovchi belgilarini aniqlash, jinoyat tarkibini har tomonlama tahlil qilish, uning tarkibiy elementlariga xos bo‘lgan jihatlarini aniqlash talab qilinadi. Tadqiq etilayotgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish uchun davlat organi mansabdor shaxsining o‘z mavqeidan foydalangan holda pora beruvchining manfaati uchun muayyan harakatni bajargan yoki bajarmaganligiga e’tibor qaratmasdan aynan shu pora beruvchini manfaati uchun moddiy qiymatlik olganligi o‘zi yetarli hisoblanib muayyan harakatni amalga oshirgan yoki oshirmaganligini isbotlash talab etilmaydi. Respublika bo‘yicha JKning 211-moddasi bilan 2024-2026-yillarda ko‘rib chiqilgan 145 jinoyat ishlaridan 5 tasi oqlangan, 22 ta ish tugatilgan, 25 ta ish bo‘yicha sud hukmlari o‘zgartirilgan va 15 ta ish bo‘yicha sudlarning hukmlari yuqori sudlar tomonidan bekor qilingan [15]. Ushbu tahlillar Jinoyat kodeksining 211-moddasini kvalifikatsiya qilishda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjudligini anglatadi. 211-moddasida ko‘zda tutilgan pora "Pora – mulkiy, ya’ni pul, qimmatbaho qog’ozlar, moddiy boyliklar, shuningdek, pora oladiganga qaytarmaslik sharti bilan, lekin moddiy mohiyatga molik bo‘lgan (masalan, ta’mirlash, qurilish, qayta tiklash ishlarini bajarish va boshqalar) xizmatlar, shuningdek nomulkiy, ya’ni mulkiy holatini yaxshilashga (oshirish) qaratilmagan, shaxsiy (kundalik) ehtiyojlarni

qondirishga yo‘naltirilgan, har qanday ko‘rinishdagi nomoddiy ko‘rinishdagi xizmatlardir. Shundan kelib chiqib JKning 211-moddasi ham javobgarlik nazarda tutilgan ko‘plab maxsus normalar bilan to‘qnashadi, masalan, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish (JK 205-m.), hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (JK 206-m.), mansabga sovuqqonlik bilan qarash (JK 207-m.), firibgarlik (JK 168-m.). Shuning uchun fikrimizcha, Jinoyat kodeksining poraxo‘rlikka oid normalari dispozitsiyasiga pora olish, pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilish bilan bog’liq xatti-harakatlar boshqa jismoniy va yuridik shaxslar manfaatini ko‘zlagan holda sodir etilishini nazarda tutuvchi o‘zgartirish yoki qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, xalqaro standartlar va xorijiy davlatlar tajribasiga asoslangan holda pora olish va pora berishdan tashqari pora taklif qilish, pora berishni va’da qilish, pora so‘rash va pora haqidagi taklifni qabul qilish kabi harakatlarni ham tugallangan jinoyat sifatida e’tirof etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Sababi, bu kabi qilmishlar o‘z tavsifiga ko‘ra tugallangan pora olish va berish jinoyatlari kabi ijtimoiy xavfli hisoblanadi.

Bundan tashqari, o‘rganilgan 50 ta hukmning 36 tasida (72 foiz) xizmat vazifalarini qasddan bajarmaslik, 9 tasida (18 foiz) xizmat vazifalarini umuman bajarmaslik, 5 tasida (10 foiz) esa xizmat vazifalarini qasddan bajarmaslik evaziga pora berganlik holatlari qayd etilgan [15].

Sud hukmlarining monitoring jarayonida o‘rganilgan 20 ta hukmning 10 tasida (50 foiz) pora predmeti davlat foydasiga musodara qilingan muammoning ham kelib chiqishi aynan 211-moddaning rag’batlantiruvchi qismini qayta ko‘rib chiqishni taqazo qiladi. Chunki pora olgan shaxs pora bergan shaxsning foydasiga hal qilishi lozim bo‘lgan ishni (ishga qabul qilish, kredit berish, fermer xo‘jaligi tashkil qilish uchun yer ajratish, o‘qishga kiritish va h.k.) bir oy mobaynida emas, bir necha oy mobaynida, qolaversa, ana hal bo‘lyapti, mana hal bo‘lyapti deb bir yil ham cho‘zishi mumkin. Agar pora olgan shaxs pora bergan shaxsning ishini ijobiy hal qilib bermasa, tabiiyki, pora bergan va pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxslar pora predmetini (pul, chet el valyutasi, moddiy boylik va h.k.) qaytarib berishni talab qiladi, pora olgan shaxs esa pulni bermaydi, pora bergan shaxs esa tegishli organga arz qilaman deydi, pora olgan shaxs esa pul berganingdan keyin bir oy mobaynida arz qilishing kerak edi, hozir arz qilsang o‘zing ham javobgar bo‘lasan, yaxshisi kutgin, qachon topsam pulingni beraman deb aldab yuraveradi.

Pora bergan shaxs oqibatni o‘ylab arz qilmaydi, poraxo‘r esa poraxo‘rlik faoliyatini avj oldiraveradi. Shunga ko‘ra, mazkur normani quyidagi tahrirda bayon qilish taklif etiladi:

"..... shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda uch sutka ichida, biroq bu haqda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ma’lum bo‘lgunga qadar, o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi."

Bu kabi o‘zgartirishlarni Jinoyat kodeksining poraxo‘rlikka oid mazkur turdagi normalari mavjud barcha moddalariga kiritish lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 10 avgustdagi "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g’risida"gi PF-6041-son Farmon // https://lex.uz/uz/docs/4939467

2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.06.2026 yildagi O‘RQ-1155-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.06.2026 y., 03/26/1155/0616-son)

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 24 sentyabrdagi "Poraxo‘rlik ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g’risida"gi 19-sonli qarori. https://lex.uz/docs/1449106

4. Niyozova S.S. Korrupsion jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari. O‘quv qo‘llanma – Toshkent. 2026. – 96 b.

5. Borkov V.N. Kvalifikatsiya dolжностных prestupleniy. Monografiya. – M.: Yurlitinform, 2018. – S 288.

6. Axrorov B.D. Boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgarlik muammolari: Yurid. fan. dokt. ...dissertatsiya. – T., 2008. – 348 b.

7. Otajonov A.A, N.Salayev, S.Niyozova Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari (Maxsus qism). O‘quv qo‘llanma. – TDYU. 110-bet

8. Yegorova N. A. Novelly Ugolovnogo kodeksa o dolжностных prestupleniyax // Zakonnost. – 2016. – № 2. – S. 34-38.

9. Allanov A.M., Ponyatiye prestupleniya vzyatochnichestva i yego ugolovno-pravovaya xarakteristika. Eurasian journal of law, finance and applied

sciences. Innovative Academy Research Support Center. – Volume 4, Issue 3, March 2024 ISSN 2181-2853. – S. 240-245.

10. Tishchenko Yu. Yu. Xalatnost: ugolovno-pravovoy i kriminologicheskiy aspekty. Avtoref. dis. … kand. yurid. nauk. – M., 2022. – S. 10.

11. Rubtsova Yu.S. Prichiny i usloviya dolжностной xalatnosti sotrudnikov organov doznaniya MVD Rossii pri proizvodstve predvaritelnogo rassledovaniya i mery yeyo preduprezhdeniya // Politseyskaya i sledstvennaya deyatelnost. – 2017. – № 1. – S. 81.

12. Borkov V.N. Kvalifikatsiya dolжностных prestupleniy. – M., 2018. – Ser. Ugolovnoye pravo. – S.54.

13. Saliyev N.S, Xidoyatov B., Tulaganova G., Niyozova S. Korrupsiyaga qarshi kurash. O‘quv qo‘llanma – TDYU 2018 – 18-20 bet.

14. M.X.Rustambayev Jinoyat kodeksi maxsus qismiga sharh. Toshkent – yuridik adabiyotlar – 2025. 119-bet

15. https://sud.uz (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy sayti).

Research Science and Innovation House